



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCE.UZ

30 APRIL  
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
4-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-4**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-4**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ  
ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ**

|   |    |
|---|----|
| <b>1. Egamberdiev Ilxom Ergashevich</b>   |    |
| TEXNOGEN, TABIIY VA EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNING<br>TASNIFI.....                          | 7  |
| <b>2. Jonibekov Shuhrat Baxtiyorovich</b>   |    |
| AKVATORIYALARINING PLYAJ ZONALARIDA DAM OLUVCHILARNING<br>XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH..... | 10 |
| <b>3. Saydaev O'ktam Tashbekovich</b>   |    |
| ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА АҲОЛИНИ МОДДИЙ ВА МАДАНИЙ<br>БОЙЛИКЛАРНИ ЭВАКУАЦИЯ ҚИЛИШ.....                    | 13 |
| <b>4. Shomirzaev Otobek Quvonovich</b>  |    |
| KIMYOVIY ZAHARLOVCHI VOSITALAR .....  | 16 |



## СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

### TEXNOGEN, TABIIY VA EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNING TASNIFI

Egamberdiev Ilhom Ergashevich

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi uslubchi- o'qituvchisi

Telefon raqami: +99899 346 27 85

Elektron pochta manzili: egamberdiyevilhom76@gmail.com

**Annotatsiya:** O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-sonli qarori bo'yicha tadbiq etilmoqda.

**Kalit so'zlar:** lokal, mahalliy, respublika, transchegara, Transport avariyalari, gaz, neft, Yong'in, portlash, atmosfera, tuproq, suv omborlarida, daryo va kanallar, qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala, gidrometeorologik hodisalar, o'lat, vabo, sarg'ayma isitma, zoonoz, epidemiya, epizootiya, epifitotiqa, oltingugurt dioksid, azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, chang, gidrosfera, GES, GRES, TES, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar (KTKZM), Radioaktiv modda.

Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablar va manbalariga ko'ra tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlariga bo'linadi.

### TEXNOGEN TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR

#### 1. Transport avariyalari va halokatlari:

ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan aviahalokatlar;

yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temiryo'l transportidagi halokatlar va avariylar (ag'darilishlar);

portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi (jarohatlanishi, zaharlanishi) ga sabab bo'ladigan avtomobil transportining halokati va avariyalari, shu jumladan, yo'l-transport hodisalari;

odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariyalari, yong'inlar;

gaz, neft va neft mahsulotlarining (avariya holatida) otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan magistral quvurlardagi avariyalari.

#### 2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariyalari:

atrof-tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarining (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariyalari, yong'in va portlashlar.



3. Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan ob’ektlardagi avariylar:

texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong‘in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatalidigan yoki saqlanadigan ob’ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o‘limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo‘lishiga, Favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong‘inlar va portlashlar;

sanoat va qishloq xo‘jaligi mas’ul iste’molchilarining avariya tufayli energiya ta’mnotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TESlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug‘qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalaridagi va boshqa energiya ta’mnoti ob’ektlaridagi avariylar va yong‘inlar;

aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug‘ilishiga olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob’ektlardagi avariylar.

5. Odamlar o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruvi ishlari o‘tkazilishini hamda zarar ko‘rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo‘nalishdagi ob’ektlar, shuningdek uy-joy sektori binolari konstruksiyalaring to‘satdan buzilishi, yong‘inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog‘liq avariylar:

radioaktiv materialarni tashish vaqtidagi avariylar;

atrof-muhit va odamlar salomatligi uchun xavf tug‘diruvchi radioaktiv chiqindilar to‘plagichlardagi, chiqindixonalardagi, ishlam to‘plagichlardagi va zaharli moddalar ko‘miladigan joylardagi avariylar (o‘pirilishlar);

radioizotop buyumlarning yo‘qotilishi;

biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof – muhitga chiqib ketishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq vaziyatlar.

7. Gidrotexnik halokatlar va avariylar:

suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog‘lardagi ko‘llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o‘limiga, sanoat va qishloq xo‘jaligi ob’ektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

## TABIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR

1. Geologik xavfli hodisalar:

odamlar o‘limiga, ma’muriy-ishlab chiqarish binolarining, texnologik asbob-uskunalarining, energiya ta’moti, transport kommunikatsiyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo‘nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar;

odamlar o‘limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko‘chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirishni talab qiluvchi yer ko‘chishlari, tog‘ o‘pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

2. Gidrometeorologik xavfli hodisalar:

odamlar o‘limiga, aholi punktlarini, ba’zi sanoat va qishloq xo‘jaligi ob’ektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlari o‘tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to‘planishi va sellar;

aholi punktlaridagi, sanatoriylar, dam olish uylaridagi, sog‘lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o‘limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan qor ko‘chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar.

3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar:

o‘lat, vabo, sarg‘ayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;



odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar — epidemik toshmali terlama, Bril kasalligi, Ku-isitma;

zoonoz infeksiyalar — Sibir yarasi, quturish;

virusli infeksiyalar — SPID;

epidemiya — alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo‘lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo‘lgan odamlarning guruh bo‘lib yuqumli kasallanishi, bir aholi punktida — 50 kishi va undan ortiq;

aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo‘lib kasallanish — 20 kishi va undan ortiq;

tashhisi aniqlanmagan bezgak kasalligi — 15 kishi va undan ortiq;

o‘lim yoki kasallanish darajasi o‘rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo‘lgan vaziyat;

zaharli moddalar bilan zaharlanish — jabrlanganlar soni — 10 kishi, vafot etganlar soni — 2 kishi va undan ortiq:

oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish — jabrlanganlar soni — 10 kishi, vafot etganlar soni — 2 kishi va undan ortiq;

epizootiya — hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo‘lishi;

epifitotiya — o‘simliklarning ommaviy nobud bo‘lishi.

## EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR

1. Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:

halokatli ko‘chkilar — foydali qazilmalarni qazish chog‘ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo‘luvchi yer yuzasining o‘pirilishi, siljishi;

tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og‘ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog‘lig‘i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo‘llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar:

havo muhitining quyidagi ingridientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, chang va odamlar sog‘lig‘iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zararli moddalar;

katta ko‘lamda kislotali zonalar hosil bo‘lishi va ko‘p miqdorda kislota chiqindilari yog‘ilishi; radiatsiyaning yuqori darajasi.

3. Gidrosfera holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:

yer yuzasi va yer osti suvlaring sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi oqovalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan tarkibida og‘ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo‘lgan chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi;

suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvning keskin yetishmasligi.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-sonli qarori.

2. <https://lex.uz/>



## AKVATORIYALARINING PLYAJ ZONALARIDA DAM OLUVCHILARNING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH

**Jonibekov Shuhrat Baxtiyorovich**

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi  
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.

Telefon raqami: +998994745434

Elektron pochta manzili: shuxratbekjonibekov1987@gmail.com

**Anotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi akvatoriyalaring plyaj zonalarida dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 164-sonli qarori bo'yicha tadbiq etilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Akvatoria, plyaj zonası, plyaj akvatoriyasi, suvda aholining ommaviy dam olish joyi, umumiy suvdan foydalanish, Cho'milish mavsumi akvotoriyalarda odamlarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, qutqarish posti, tibbiy yordam posti, kichik o'lchamli kemalar.

Plyaj va aholining suvda ommaviy dam olishi uchun ajratiladigan joylar quyidagi talablarga javob berishi kerak – Sohil bo'yи hududi rejalashtirilgan va obodonlashtirilgan bo'lishi;

Akvotoriyaning chuqurligi 3 metrgacha, qirg'oqdan 50 metrgacha maydon dam oluvchilarning hayoti va sog'ligi uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan jismardan tozalangan bo'lishi;

Plyaj akvotoriyasida past haroratlari yer osti suvlari chiqmasligi, girdoblar bo'lmasligi, oqimning tezligi 0,5 m/soniyadan oshmasligi;

Suv havzalari qirg'og'ida yoki ularning yaqinidagi bolalarni sog'lomlashtirish va dam olish muassasalaridagi cho'milish joylari prichallardan, sanoat va maishiy oqava suvlar va boshqa ifloslantiruvchi manbalar chiqarib tashlanadigan joylardan kamida 500 metr masofada bo'lishi kerak.

Suv omborlari, ko'llar, daryolar, kanallar hamda boshqa oqadigan va oqmaydigan yirik suv havzalarida plyaj akvotoriyasi suv yuzasining maydoni bir nafar dam oluvchi hisobiga 5 m<sup>2</sup> va oqmaydigan suv havzalarida - 10 m<sup>2</sup> bo'lishi kerak.

Aholining ommaviy dam olishi uchun foydalaniladigan plyaj zonalari funksional vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- davolash-sog'lomlashtirish plyajlari - iqlim bilan davolash amalga oshirilmaydigan davolash-sog'lomlashtirish muassasalari plyajlari;

- bolalar plyajlari - mijozlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan muassasalarda sog'lomlashtiriluvchi va dam oluvchi bolalar hisoblanadigan bolalar sog'lomlashtirish va dam olish muassasalari plyajlari;

- umumiy foydalaniladigan plyajlar - barcha xoxlovchilar bepul va bemalol foydalanadigan plyajlar.

Plyajlar va plyajlarning akvotoriyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak – Plyajlar va plyajlarniig akvotoriyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Plyaj akvotoriyasida suzish masofasi qirg'oqdan 50 metrgacha, chuqurligi 3 m. ortik bo'limgan qizil yoki to'q; qizil rangdagi buylar

-Plyaj xududida kiyimni almashtirish kabinasi, hojatxonalar (biohojatxonalar), qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun axlatdonlar, soyabonlar, ichimlik suv bilan ta'minlangan bo'lishi;

-ko'z bilan nazorat qilish va kuzatishning zarur vositalari bilan jihozlangan bo'lishi;

-Plyajlar va plyajlarniig akvotoriyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

-aholiga zarur axborotni yetkazish va suvda xavfsizlikka rioya qilishga doir tushuntirish ishlarini tashkil etish maqsadida radiolashtirilgan bo'lishi;

-bolalar plyajlari akvotoriyalarida suzish marralari butun perimetri bo'yicha 0,7 metr chuqurlikda ishora qoziqlari, buylar, suvda qalqib turuvchi to'siqlar bilan belgilanadi. Bolalarning har bir guruhi uchun sohil bo'ylab bir-biridan 5 metr masofada va suv bo'linishidan 1 metr masofada sohil bayroqchalari qadab qo'yiladi yoki rangli bayroqchalardan iborat bo'lgan yaxlit to'siq o'rnatiladi.

Cho'milish ta'qilangan joylarda "Cho'milish ta'kiklanadi!" yozuvli shitlar o'rnatiladi, akvotoriyadagi xavfli joylar "Xavfli!" yozuvli ogohlantirish buylari bilan belgilanadi;

Har bir plyajda tegishli hudud biriktirilgan tashkilotlar tomonidan qutqarish posti va tibbiy yordam posti bo'ladi.

Qutqarish postlari va tibbiy yordam postlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha talablar tegishli



ravishda O'zbekistan Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qutqarish postini va tibbiy yordam postini saqlash plyajlardan, shu jumladan ijara shartlarida foydalanadigan tashkilotlar hisobiga amalga oshiriladi.

Plyajlarda quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan stendlar o'rnatiladi:

-Nizomdan ko'chirmalar;

- cho'milish tartibi va quyosh vannalarini qabul qilish to'g'risida dam oluvchi fuqarolar uchun tavsiyalar;

- suv va havo harorati, shamolning yo'nalishi va tezligi, oqimning tezligi, suvning to'lqini ko'rsatilgan jadvallar;

- plyajning hududi va akvatoriyasi aniq ajratib ko'rsatilgan chegaralar, cho'milish ta'qiqlangan chuqurliklar va joylar ko'rsatilgan xaritasi;

- o'zini-o'zi qutqarish usullari;

- jabrlanganlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish usullari;

- ichki ishlar hududiy organlarining joylashgan joyi va telefon raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

- Har bir bolalar plyajida suzishga o'rgatish uchun o'quv punkti tashkil etiladi, ular qo'llab-quvvatlovchi (qutqaruv) poyasları bo'lgan suzish taxtachalari, elektromegafon, plyaj akvatoriyasini belgilash uchun sunda qalqib turuvchi to'siqlar bilan ta'minlanadi.

- O'quv punkti peshlavha, mashg'ulotlar jadvali, suzishga o'rgatish metodikalari va texnikasi, sunda xavfsizlik choralar bo'yicha o'quv plakatlari bilan jihozlanadi. Suzishga o'rgatish suzish bo'yicha yo'riqchi tomonidan o'tkaziladi.

- Plyajda nogironlarning bemalol kirishlari va bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

- Umumiy foydalaniladigan plyajda yer uchastkasi umumiy maydonining 40 foizdan ortiq bo'limgan hududda, shu jumladan plyaj umumiy maydonining 35 foizidan ortiq bo'limgan hududda yengil kreslolar (yog'och karavotchalar) berish xizmatlari ko'rsatadigan hak to'lanadigan plyaj servisi xizmatlarini joylashtirishga yo'l qo'yiladi.

- Aholi ommaviy dam oladigan joylar hisoblanadigan hududlarda quyidagilar ta'qiqlanadi:

- plyaj materialini shikastlantirish va yo'q qilish;

- kabellar o'tkazish, shu jumladan yuqori kuchlanishli yer osti kabellari o'tkazish;

- quvurlar, boshqa kommunikatsiyalar o'rnatish;

- drenaj, sanoat va maishiy oqava suvlarini chiqarib tashlash;

- foydalanish rejimi va tabiiy davolash omillarini qo'riqlash bilan bog'liq bo'limgan binolar va ob'ektlar qurish;

- avtomobillar to'xtash joylari, avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni yuvish punktlari qurish;

- kimyo, sellyuloza-kog'oz va metallurgiya sanoati korxonalari faoliyati;

- daraxtlarni kesish (parvarish qilish va sanitariya bilan bog'lik kesishlar bundan mustasno);

- zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash;

- o'lgan chorva mollari ko'miladigan joylar barpo etish;

- chiqindilarni saqlash va ko'mish;

- joyning gidrologik rejimini o'zgartirish.

Plyajlardan foydalanishga qo'yiladigan talablar – Quyidagi holatlarda plyajlar va suvda aholining dam olish joylari faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi:

- plyaj akvatoriyasining suv osti qismi pasporti mavjud bo'limganda;

- plyaj akvatoriyasi chuqurligining o'lchov xaritasi mavjud bo'limganda;

- plyaj akvatoriyasi tekshirilmaganda va tozalanmaganda;

- suv sifati bo'yicha laboratoriya nazorati natijalari bo'limganda;

- tibbiy yordam posti bo'limganda;

- tayyorlangan qutqaruvchilar bilan ta'minlangan va zarur qutqarish anjomlari bilan jihozlangan qutqarish posti bo'limganda;

- plyajlarning suv osti qismida quvurlar va suv olish quvurlari mavjud bo'lganda, shuningdek plyajlarga tutashgan tekshirilmagan prichallar yaqinida, kichik o'lchamli kemalar yaqinlanashadigan joylarda.

- Qutqaruv postlariga kuyiladigan talablar



- Qutqarish posti joylashgan joyda «Qutqaruv posti» yozuvli peshlavha o‘rnatalishi kerak.
  - Plyajlardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxs «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchini maqomi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablariga muvofiq qutqaruvchilarning funksional vazifalarini tasdiqlaydi.
  - O‘zbekiston Respublikasi VM 2014 yil 9 iyuldagagi 184-sonli Qaroriga muvofiq, Qutqaruv xizmatlarini, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha idoralararo komissiya tomonidan tasdiqlanadigan maxsus dastur bo‘yicha amalga oshiriladi.
  - Plyajdan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxs qutqaruvchilarning o‘z vazifalari bilan bog‘lik bo‘lmasan ishlarga jalb etilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.
- Akvatoriyalarda xavfsizlik ta’minlanishi yuzasidan nazoratni tashkil etish:
- Aholining dam olishi uchun mo‘ljallangan suv havzalaridan foydalanuvchi tashkilotlarning rahbarlari suv yuzasi va sohil bo‘yida odamlarning hayoti va sog‘lig‘ining muhofaza qilinishiga shaxsan javob beradilar, qutqaruv postlarini jihozlaydilar, saqlaydilar, ularni binolar va qutqaruv anjomlari bilan ta’minlaydilar, shuningdek ular faoliyatini nazorat qiladilar.
    - Suv sathidan qatiy nazar suv bo‘linadigan joygacha suv akvatoriyasiga tutash hudud, shuningdek suv bo‘linishidan 100 metr doirasida suv yuzasi uchastkasi sog‘lomlashtirish yoki sport maqsadlari, shuningdek fuqarolarning dam olishi uchun mo‘ljallangan suv havzalaridan foydalaniladigan tashkilotlarning javobgarligi zonasini hisoblanadi.
    - qutqaruv posti ishlarini nazorat qilishni plyaj biriktirilgan tashkilotlarning rahbariyati amalga oshiradi.
    - o‘zbekiston respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning hududiy boshqarmalari o‘z vakolatlari doirasida ushbu nizom talablariga rioya etilishini nazorat qiladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan “O‘zbekiston respublikasi akvatoriyaning plyaj zonalarida dam oluvchilarning xavfsizligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 164-sonli qarori.
2. <https://lex.uz/>



## ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА АҲОЛИНИ МОДДИЙ ВА МАДАНИЙ БОЙЛИКЛАРНИ ЭВАКУАЦИЯ ҚИЛИШ

Saydaev O'ktam Tashbekovich

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi

Telefon raqami: +99899 433-10-50

Elektron pochta manzili: Saydaev O'ktam 1973@gmail.com

**Anotatsiya:** Аҳолини турли хусусиятлардаги фавқулодда вазиятлардан муҳофазалаш, барча обьектлар, ташкилотлар ва муассасалар раҳбарларининг энг асосий вазифаларидан бўлиб, бу нарса «Аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Қонуннинг 11-моддасида баён этилганидек, белгиланган тартибда эвакуацияга оид тадбирларни ўтказиш ва одамларни жойлаштириш мақсадида олдиндан базалар тайёрлаб кўйиш лозимлиги қайд этилган.

**Kalitso'zlar:** Эвакуация пиёда ва транспортда, Зилзила, Радиоактив заҳарланиш, Кимёвий заҳарланиш, Сел, сув босиши, тошқин, ёнгин

Аҳолини ФВ юз берган ҳудуддан эвакуация қилиш ҳар бир алоҳида ҳолда шу вазиятнинг юзага келиш шароитига, ФВ манбаи таъсир омилларининг таъсир этиш тавсифига ва макон-вакт ўлчамларига қараб белгиланади. Аҳолини, моддий ва маданий бойликларни эвакуация қилишда, улар кўчиб келган жойда уларга зарур яшаш шарт-шароитнинг яратилишида фуқаро муҳофазаси (ФМ) кўшинларининг иштирок этиши Қонуннинг 19-моддасида назарда тутилган бўлиб, улар нафақат аҳолини хавфсиз жойга эвакуация қилишда балки уларга кўчиб келган жойларида турмуш шароитини яратишда ва фавқулодда вазиятни бартараф қилишда иштирок этишлари кўзда тутилган.

ФВ юзага келиши ҳақидаги ишончли тахмин ҳакида маълумот олинганда одамларни ФВ юз берган ҳудуддан транспортда ва пиёда уюшкоқлик билан олиб чиқиши учун қулай шароит яратишдан иборат бўлган тайёргарлик тадбирлари ўтказилади. Буларга қуйидагилар киради:

-эвакуация ташкилотларини шай ҳолга келтириш ва уларнинг ишларига аниқлик киритиш;

-эвакуация қилинадиганаҳоли, жумладан пиёда тартибда транспортда кўчириладиганлар сонини аниқлаш, транспорт воситаларини транспортга чиқиши пунктлари бўйича тақсимлаш, пиёдалар колонналарининг тузилишига аниқлик киритиш ва уларни пиёда йўналишларга тақсимлаб биркитиб кўйиш;

-эвакуация йўлларини тайёрлаш, йўл белгилари ва кўрсатгичларни кўйиш, кўниб ўтиш жойларини жиҳозлаш;

-эвакуация қилинадиган аҳолини йиғув жойлари, транспортга чиқиши, тушиш пунктларини йўлга кўйишга тайёрланиш;

-хабарлашиш ва алоқа тизимлари шайлигини текшириш;

-мавжуд муҳофаза иншоотларини шай ҳолга келтириш.

Аҳолини эвакуация қилиш ҳакида сигналлар олинганда қуйидаги тадбирлар амалга оширилади;

-эвакуация бошлангани ва тартиби ҳақида эвакуация ташкилотлари, корхоналар ва ташкилотлар раҳбарларига, шунингдек аҳолига хабар бериш;

-эвакуация ташкилотлари ишини йўлга кўйиш ва уларни шай ҳолга келтириш;

-эвакуация қилинадиган аҳолини йиғиши ва хавфсиз жойларга жўнатишга тайёрлаш.

Пиёдалар колонналарини тузиш ва йўналишлардаги бошлангич пунктларга олиб чиқиши, транспорт воситаларини аҳолининг транспортга чиқиши пунктларига келтириш ҳамда аҳолини транспортларга чиқариш;

-Эвакуация қилинган аҳолини олдиндан тайёрлаб қўйилган, турмуш кечириш учун зарур шарт-шароитларни таъминлаш, уларни хавфсиз жойларда қабул қилиш ва жойлаштириш.

Аҳолини, моддий ва маданий бойликларни эвакуация қилиш ташкилотлари ҳал киладиган вазифалар уларнинг хизмат вазифаларида кўрсатилган..

Ҳар бир алоҳида ФВ юзага келганда аҳолини, моддий ва маданий бойликларни хавфсиз жойларга эвакуация қилишнинг ўзига хос хусусиятлари бўлади.



### Ер қимиirlаганда (зилзилада):

Аҳолини эвакуация қилиш маҳаллий, ёхуд минтақавий тусда бўлиши мумкин. Эвакуацияни ўтказиш муддатлари йўл-транспорт имкониятларига қараб белгиланади. Шикастланган жойлардан аҳолини эвакуация қилиш - эвакуация қилинадиган аҳолини йиғув жойлари йўлга қўйиб, бир босқичда, ишлаб чиқариш худудий принцип асосида амалга оширилади.

### Радиоактив заҳарланишда:

Бундай ФВ аҳолини эвакуация қилиш маҳаллий, ёхуд минтақавий бўлиб, алоҳида (болалар уйи, психоневрологик тиббиёт муассасалари, болалар ва ногиронлар уйларидан (интернатлар) ва х.к. дан ташқари) обьектларда ҳудудий принципга асосан амалга оширилади. Аҳолини, моддий ва маданий бойликларни эвакуация қилиш 2 босқичда ўтказилади:

I-транспортларга чиқариш пунктидан ЭОП гача, II- ЭОП-дан режадаги вақтинча жойлаштириш худудигача. Ҳарбий ҳаракатлар бўлаётган жойлардан, оммавий шикастлаш қуроллари қўлланилганда ЭОП да аҳоли «тоза» транспортларга ўтказилади.

### Кимёвий заҳарланишда:

Бевосита кимёвий хавфли обьектлар (КХО) яқинида яшаб турган аҳоли вақт етишмаслиги сабабли, одатда, хавфли худуддан олиб чиқилмай, балки жисп ёпиладиган панажой ва хоналарга жойлаштириладилар ва нафас олиш йўлларини шахсий муҳофаза воситалари билан ҳимоя қилиш чоралари қўрилади. Аҳолининг қолган қисми амалда юзага келаётган шароитга қараб, энг қиска муддатларда, асосан аралаш тартибда қўчирилади.

### Сел келиши хавфи бор жойлардан аҳолини эвакуация қилиш:

Бундай жойлардан аҳолини эвакуация қилиш сел оқими вужудга келиш хавфи туғила бошлигандан, сел вужудга келаётган даврда, алоҳида ҳолларда эса сел оқими таъсири тугаган ҳолларда ҳам ўтказилади.

Хавф даражаси Давлат геология қўмитасининг кўчки ходисаларини кузатиш давлат хизматининг кўрсатмалариiga ҳамда «Ўзгидромет» бошқармаси томонидан аниқланган ва вилоятлар ҳокимликларига берилган сел хавфи зонасидаги обьектлар рўйхатига мувофиқ сел, тошқин-кўчки зоналаридаги шаҳарчалар, қишлоқлар ва хўжаликлар аҳолисини вақтинча бошқа жойга кўчирсинглар, зарурат бўлганда эса уларни доимий яшаш учун хавфсиз туманларга режа бўйича босқичма -босқич кўчирсинглар деб кўрсатма берилган.

Бундай вазиятларда аҳолини эвакуация қилиш тадбирларини олдиндан ўтказилгани маъкул, сел вужудга келаётган ҳолларда эса шошилинч (кечикириб бўлмайдиган) эвакуация ўтказилади.

Кўчиришнинг шошилинч бўлишини сел оқимидан муҳофаза қилиш 4 соатлик вақт доирасида, ундан кейин эса реал хавф туғила боришига қараб белгиланади. Аҳолини эвакуация қилиш чекланган ёки маҳаллий тасифда бўлади, 2 босқичдан - ЭҚАЙПни йўлга қўймасдан, сел оқими жойининг ўзида; ундан кейин ЭҚАЙП орқали режалаштирилган жойларга (ташлаб кетилган уйлар ва аҳоли яшаш жойларини сел оқими бузуб юборганда) етказиб қўйишдан иборат бўлади .

Хабар бериш олдиндан (таҳминга биноан) ёки селнинг боши ташвиш дарвозасидан ўтганда (шошилинч кўчиришларда) амалга оширилади.

### Ҳалокатли сув босиши ва тошқин пайтида

Аҳолини эвакуация қилиш гидротехника иншоотлари бузилиш хавфи туғилган ёки бузилган ҳолларда ёхуд сув ҳавзаларидаги сув сатхи кўтарилиб кетганда (тошганда), шунингдек обьектларни рисоладек ишлаши бузилганда ва аҳолининг турмуш кечириш шароитини таъминлаш тизимларини сув бузуб кетганда ўтказилади. Бундай шароитда аҳолини эвакуация қилиш чекланган ёки маҳаллий таснифда бўлиши мумкин. Олдиндан ўтказиладиган эвакуацияларда ЭҚАЙП йўлга қўйилади (ишлаб чиқариш-худудий принципда). Олдиндан ўтказиш даври қиска бўлганда аҳолини ва моддий ва маданий бойликларни эвакуация қилиш худудий принципга биноан 1 ёки 2 босқичда (ЭОПни йўлга қўйиб) ўтказилади



### Ҳалокатли ёнгин содир бўлганда

Ёнгин энг хавфли техноген ҳодиса бўлиб қисқа вақт ичидан халқ хўжалигига катта моддий зарар етказиши билан бир қаторда одамларнинг ҳаётига ҳам зомин бўлиши мумкин.

Шунинг учун барча маъмурий биноларда, ишлаб чиқариш корхоналарининг биноларида, даволаш, оммавий томоша, ётоқхона биноларида ёнгин чиққандан шу бинода бўлган одамларни эвакуация қилиш чизмаси ҳаммага кўринадиган жойларга илиб қўйилади, одамларнинг зудлик билан бинони тарк этишлари учун барча ўтиш жойлари, йўлкалар, даҳлизлар равон бўлиши, йўлкаларда одамларга ҳалақит берадиган нарсаларнинг бўлишига йўл қўйилмайди.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. 2000 yil 26 maydagи “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida” gi qonuni.
2. <https://lex.uz/>



## KIMYOVIY ZAHARLOVCHI VOSITALAR

**Shomirzaev Otabek Quvonovich**

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi  
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.

Telefon raqami: +998972757986  
Elektron pochta manzili: shomirzayevfvb@gmail.com

**Annotatsiya:** Ma'lumki, insonlar qadimgi davrlarda yovvoyi tarzda hayot kechirgan bo'lsalar, keyinchalik qabila-qabila bo'lib yashash davridan boshlab tabiatga o'z tazyiqini o'tkazib kelishgan. Hozirda inson tafakkuri shu qadar chuqur rivojlandiki, so'nggi bir asr mobaynida energetik resurslar yuz marta, qurollanish darajasi esa million hissaga o'sdi. Bunday hol onasayyoramiz va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

**Kalit so'zlar:** Qirg'in qurollari, Kimyoviy kurollar, Biologik kurollar, raketa, mina, aviatsiya bombasi, gaz chiqaruvchi ballon tizimi, gazomyot, granatalar,

Odatda ommaviy qirg'in qurollarini uchta turga bo'lishadi: kimyoviy, biologik va yadro qurollari. Keling, dastavval kimyoviy qurollar haqida fikr yuritaylik. Toksik tarkibga ega zaharovchi vositadan tashkil topgan ommaviy qirg'in quroli kimyoviy quroldir. Ular artilleriya snaryadlari, raketa, mina, aviatsiya bombasi, gaz chiqaruvchi ballon tizimi, gazomyot, granatalarda qo'llaniladi.

Kimyoviy qurolning zaharovchi vositasi inson organizmiga fiziologik ta'siriga ko'ra oltita tipga bo'linadi. Birinchisi, markaziy asab tizimiga ta'sir qiluvchi va uni falaj qilishga olib keluvchi vositadir. Ular tarkibiga zarin, zoman va V-gazlar kiradi. Bunday vositalar shaxsiy tarkibni tez va ommaviy ravishda safdan chiqaradi va ko'plab halokatga sabab bo'ladi.

Ikkinchisi, terida yiringlar hosil qiluvchi zaharovchi vositadir. Bunga iprit, lyuzit deb nomlanuvchi vositalar kiradi. Ular inson terisi yuzasiga zarar keltirib, aerozol va bug'lar shaklida qo'llaniladi.

Uchinchisi, umumiyligi zaharovchi vositalardir. Organizmga tushar ekan, ular qondan to'qimalarga kislorod uzatilishi jarayonini izdan chiqaradi. Sianid kislotasi va xlorsian ana shunday vositalardan hisoblanadi.

To'rtinchisi, ya'ni bo'g'uvchi zaharli vositalar asosan o'pkani ishdan chiqaradi. Ular tarkibiga fosgen va difosgen kiradi.

Beshinchisi, psixokimyoviy ta'sir ko'rsatuvchi zaharovchi vositalardir. Ular muayyan vaqt davomida raqibning tirik kuchlarini safdan chiqaradi. Ya'ni markaziy asab tizimiga ta'sir qilib, ruhiy faoliyatni izdan chiqarib, vaqtinchalik ko'z ojizligi, soqovlik, harakatlanishda cheklash bilan bog'liq holatlarni yuzaga keltiradi. Mazkur vositalar odatda o'limga olib kelmaydi. Xinuklidil-3-benzilat va dietilamid lizergin kislotasi shunday toifadagi zaharovchi vositalarga kiradi.

Nihoyat oltinchisi qo'zg'atuvchi vositalar hisoblanadi. Yoki ularni irritantlar ham deyishadi. Bunday kimyoviy qurollar toifasiga ko'zdan yosh oqizuvchi, aksirtiruvchi vositalar kiradi. Aytish lozimki, bunday vositalar ko'plab mamlakatlarning politsiyasi qurol-yarog'i tarkibiga ham kiritilgan. Ko'zdan yosh oqizuvchi vositalarga lakrimatorlar, xlorasetofenon va xloropikrin, aksirtiruvchi vositalarga sternitlar, adamsit, difenilxlorarsin kabilar kiradi.

Kimyoviy qurol qo'llanilishi bilan bog'liq ayrim mash'um holatlar internetda belgilangan. Ulardan birinchisi sifatida yuqorida keltirilganidek, 1915 yil apreliida Germaniya Belgiyadagi Ipr shahri yaqinida qo'llagan xlor tilga olinadi. Mazkur hujum oqibatida dastlab 15 ming kishi qattiq zaharlanadi va ulardan 5 mingi halok bo'ladi. Oradan bir oy o'tib, qo'llangan navbatdagi kimyoviy hujumda 9 ming nafar askar zaharlanib, ulardan 1200 nafari jang maydonida halok bo'lishadi.

Ilk bor kimyoviy vositalarni Yaponiya Xitoyning Vosyuy shahrini bombardimon qilish orqali qo'llab, 1000 ga yaqin aviabomba tashlaydi. Keyinchalik Dinyan degan joy yaqinida yana 2500 ta kimyoviy snaryadni portlatishadi. Bundayin urush oqibatida 50 mingga yaqin kishi halok bo'ladi.

Ayniqsa, kimyoviy, biologik qurollar yordamida amalga oshirilayotgan xunrezliklar insoniyatni qattiq tashvishga solayotganini ko'rib turibmiz. Bioterrorchilik, kimyoviy terrorchilik degan tushunchalar nafaqat paydo bo'lmoqda, balki halovatimizni o'g'irlamoqda. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi mumkin. Terrorchilar nega aynan kimyoviy, biologik vositalar yordamida terrorchilik harakatlarini olib borishga intilishyapti? BMTning buyurtmasiga ko'ra o'tkazilgan



tadqiqot misolida javob berishga urinib ko‘raylik. Bunga muvofiq, bir kilometr kvadrat hududda fuqarolarga qarshi harbiy operatsiyani amalga oshirishda oddiy qurol qo‘llanilsa 2 ming, yadro quroli qo‘llansa 800, neyrotosik gazlar ishlatsila 600, biologik qurol qo‘llanilsa 1 AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflanishi mumkin ekan. Buni qarangki, ulkan zarar yetkazishidan tashqari iqtisodiy jihatdan qulayligi ham terrorchilarga qo‘l kelarkan.

2010 yilning boshida dunyodagi kimyoviy qurollar zaxirasi taxminan 30308 tonnani tashkil qilgan. 1997 yilda kimyoviy quollarni taqiqlash to‘g‘risidagi konvensiya kuchga kirganidan keyin dunyodagi bu zaharli vositalarning zaxirasi birmuncha qisqardi. Masalan, 2005 yilda kimyoviy quollarning umumiy miqdori dunyoda 71373 tonnani tashkil qilganida ham buni ko‘rish mumkin. Qisqasi, mazkur konvensiya sharofati bilan kimyoviy quollar zaxirasining 60 foizga yaqini yo‘q qilingan. Aytish lozimki, 2010 yilning avgustigacha kimyoviy quollarni taqiqlash borasidagi konvensiyaga 188 ta davlat a’zo bo‘lib kirgan. Aslida bu boradagi xalqaro sa‘y-harakatlar 1968 yildan boshlangan. 1992 yilda BMT Bosh Assambleyasi konvensiyani qabul qilgan. 1997 yilning 29 aprelida oltmishto‘qqizinch a’zo – Vengriya ratifikatsiya qilganidan so‘ng konvensiya kuchga kirgan.

Qolaversa, har qanday tajovuzga o‘z vaqtida va munosib zarba berishga qodir Qurolli Kuchlar shakllantirildi. Muhimi, yuz berayotgan qarama-qarshiliklar, ixtiloflar bizdan olisda, degan fikrda loqayd, beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Tinch va osoyishta hayotimizga tahdid solishi mumkin bo‘lgan bunday xatarlarning salbiy ta’sirini anglashimiz, his qilishimiz va bulardan tegishli xulosa chiqarishimizni zamonning o‘zi talab qilmoqda.

**Qirg‘in quollari** deganda juda katta mikyosda vayronagarchilik va yuk kilish uchun muljallangan kuollar tushuniladi.

Bunday kuollar nafakat insoniyatni, balki atrof-muxitni, inshootlarni, kiyim-kechaklarni, moddiy boyliklarni shikastlantiradi. Bunda albatta, zararlanish darjasи, kirgin kuollarining turiga, xususiyatlariiga boglik. Jumladan, yadroviy kuollar tirik mavjudotlarni xam, jamiki inshootlar, texnikalarni kattik shikastlantiradi.

**Kimyoviy kuollar** ta’sir etgan jamiki mavjudotlar, narsalar zaxarlanib, oldingi xolatiga kaytarib bulmaydigan darajaga tushib koladi, ya’ni zaxarlanadi.

**Biologik kuollar** orkali asosan tirik mavjudotlarda kuchli kasallik tarkatish tufayli kuyilgan maksadga erishiladi.

Keyingi paytda NATO armiyasida, Rossiya kurolli kuchlari tarkibida nurli kuollar yaratildiki, bular xam kullanilganda insoniyatga, atrof-muxitga, inshootlarga, xarbiy texnikalarga katta zarar yetkaziladi. Nurli kuolarning ta’sir etish xususiyati termomexanik ta’sirga asoslangan, ya’ni nurlar dastasi nishonga urilganda, u suyuladi yoki parlanadi (bunda nishonning suyulish xaroratiga karab uzzaradi).

Nurli kurolning shunday xususiyatidan foydalanib, dushmanning xarbiy texnikalari, kuollari yaroksiz xolatga keltiriladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida” gi qonuni.
2. <https://lex.uz/>

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(4-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович**

**Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович**

**Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000